

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOG-TARBIYACHILARNING TA'LIMIY FAOLIYATLARNI TASHKIL ETISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'RNI VA ULARDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISHI

Raxmatova Gulobod Tuyboy qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti maktabgacha
ta'lif kafedrasini o'qituvchisi

Valiyeva Nasiba Boboyor qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti maktabgacha
ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada pedagog-tarbiyachilarning har bir ta'limiylar faoliyatlarining tashkil etishida didaktik o'yinlardan keng foydalanish orqali bolalarning aqliy, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalanishi, fikrlash doirasining kengayishi, didaktik o'yin qoidalari va didaktik o'yinni tashkil etish haqida bilim, malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi. Ta'limiylar faoliyat davomida har bir didaktik o'yinni didaktik materiallar asosida tashkil etish yoritib berilgan. Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida zamonaviy yondashuv asosida didaktik o'yinlarni yanada takomillashtirish mumkun.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lif didaktikasi, didaktik o'yin, didaktik materiallar, diversifikatsiya.

Annotation:

In this article, pedagogues-educators use didactic games in the organization of each educational activity to educate children mentally, physically, morally, expand their thinking, rules of didactic games and knowledge, skills and skills are formed. During the educational activity, the organization of each didactic game on the basis of didactic materials was explained. It is possible to further improve didactic games based on a modern approach in preschool educational organizations.

Keywords: Didactics of preschool education, didactic game, didactic materials, diversification.

Maktabgacha ta’lim bolajonlarning ertangi kuniga zamin yaratib beradi. Bugunga kelib, maktabgacha ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan pedagog-tarbiyachilardan juda katta mahorat, yuqori saviya, malaka talab qilinmoqda. Ota-on a o‘z farzandini maktabgacha ta’lim tashkilotiga ishonib topshirar ekan, farzandining ertangi kuni yorug‘ kelajagini ko‘zlagan holda boradi albatta. Xop, endi maktabgacha ta’lim tashkilotida olib borilayotgan ta’limiy faoliyatlarini bolalarning bilimini mustahkamlashga yordam beradi. Ushbu bilimlarni mustahkamlashda bolalar bilan olib boriladigan didaktik o‘yinlar muhim ahamiyatga ega. Chunki bolaning asosiy faoliyat turi hisoblangan didaktik o‘yinlar uning har tomonlama yetuk inson sifatida rivojlanishini ta’minlaydi.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlash vazifalari quyidagilardan iborat:

- ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish;
- maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun o‘quv-uslubiy va didaktik materiallar ishlab chiqish va ishlab chiqarish;
- maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish;
- maktabgacha ta’lim va tarbiyani boshqarishning zamонавиy uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;
- maktabgacha ta’lim va tarbiya tizimiga joriy etiladigan ta’lim uslublari va dasturlari samaradorligini tahlil qilish hamda baholash.”¹

Didaktik o‘yin – bu maktabgacha yoshdagи bolalarning yosh va imkoniyatlariga mos keladigan ta’lim berish metodidir. Yuqori tajribali tarbiyachi didaktik o‘yin davomida passiv bolalarni jamoa bn muloqotga kirishib ketishi, har xil rejalar, vazifalarni ikkilanmasdan bajarishlari uchun foydalanadi. Tarbiyachi faoliyati davomida didaktik materiallardan keng foydalanishi kerak. Mashg‘ulotlar davomida ko‘plab didaktik o‘yinlar o‘ynatish kerak. Didaktik o‘yinlarga didaktik nuqtai nazardan qaraydigan bo‘lsak, maktabgacha yoshdagи bolalarning psixologik qobiliyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi. Pedagogik jarayonlarda bolalar bog‘chasi didaktikasidan foydalanish ta’lim va tarbiya samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha ta’lim didaktikasi – umumiy didaktikaning sohasidir. Ma’lumki, har bir mashg‘ulot haftaning ma’lum bir kunida aniq bir vaqtda o‘tkaziladi. Avvalombor, tarbiyachi mashg‘ulot o‘tishga tayyorlanar ekan, dasturning

¹ ”Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi O’RQ-595 2019.12.16

mazmunini sinchiklab o‘rganib chiqadi. Bolaga berilayotgan har qanday bilim qat’iy aniqlangan sistema va izchillikda uzviy ravishda beriladi. Tarbiyachi bolalarga mashg‘ulot o‘tish davomida ko‘proq didaktik materiallar asosida tashkil etilgan o‘yinlardan keng foydalanishi kerak. Didaktik o‘yinlardan foydalanish ta’limning eng muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Didaktik o‘yinlar bolani diversifikatsiya qilishning asosiy vositasidir. Didaktik o‘yinlar bolalarning asosiy sifatlarini tarbiyalashga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar bolalarni o‘rab turgan narsalarga, kundalik hayot hodisalariga, tabiatga, o‘ynlarga to‘g‘ri munosabatni shakllantiradi va bolaning bilimini chuqurlashtiradi. Tarbiyachi bolalarda ko‘proq didaktik o‘yin hissiyotlarini rivojlantirishi va shu orqali atrofdagi olamni to‘liq anglashi uchun his qilishi, idrok qilishi kerak. Didaktik o‘yin asosida bolalar nutqini rivojlanishiga katta ahamiyat beriladi. Didaktik o‘yin davomida bolaning nutqidagi so‘zlar boyiydi va o‘z fikrini mustaqil bayon etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun didaktik o‘yinlar mehnat ta’limi vazifasini bajaradi. Bolalar o‘yin uchun kerak bo‘lgan materiallarni o‘zлari mustaqil holda tayyorlash orqali boshlang‘ich mehnat ko‘nikmasini shakllantiradilar.

Didaktik o‘yinlarni tashkil etayotganda tarbiyachi avvalo didaktik material gigiyenik bo‘lishiga, estetik tarzda ishlab chiqilganligiga alohida e’tibor qaratishi kerak. Yorqin rangli, chiroqli, nafis ishlangan har qanday o‘yinchoqlar har doim bolalarning diqqatini jalb qiladi, bolalarda o‘yinchoq bilan o‘ynash istagini uyg‘otadi va bu orqali bolalarda tarbiyachi estetik tarbiyani shakllantirgan bo‘ladi. Har qanday didaktik o‘yin tashkil etilayotganda o‘yin mazmuni, vazifasi, harakati, natijasi va o‘yining g‘oyasidan kelib chiqqan qoidalar bo‘ladi. Qoidalarni bajarish o‘yin mazmunini amalga oshirishni ta’minkaydi va bolalarni xulqini o‘zaro bir-biriga bo‘lgan munosabatini shakllantiradi. Agarda didaktik o‘yinda qoidalar bo‘lmasa u didaktik mashqqa aylanib qoladi. Didaktik o‘yin ta’lim bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayonini sifatini yaxshilashga yordam beradi. Tarbiyachi didaktik o‘yinni har doim g‘oyaviylik prinsipiiga asoslangan holda amalga oshirishi kerak. Bola didaktik o‘ynaganda jamoa bilan ishlashni o‘rganadi. Tarbiyachi har bir mashg‘ulotni o‘tish jarayoniga alohida tayyorgarlik ko‘rgan holda yangicha metodlar asosida yondashgan holda olib borishi kerak.

Bolajonlarda predmetlarni bir- biri bilan solishtirish, chamlab ko‘rish, paypaslab topish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish va predmetlarga ta’rif berish jarayonida bolaning so‘z boyligini oshirishdir. Har bir mashg‘ulot davomida tashkil etilgan didaktik o‘yinlar boladagi ushbu sifatlarnigina emas balkim bolada

bor bo‘lgan yashirin qobiliyatlarni ham mohiyatini ochib beradi. Didaktik o‘yin qancha ko‘p tashkil etilsa bolaning miyasi charxlanadi, har bitta didaktik o‘yindan keyin yangicha firlar paydo bo‘lib tengdoshlari o‘rtasida bemalol mustaqil nutqini bayon etadi. Keyinchalik maktabga qadam qo‘yanida ham boshqa bolalar bilam mustaqil fikr almashinadigan bo‘ladi. Tarbiyachi yuqori sifatli mashg‘ulot tashkil qilish jarayonida unga o‘quv didaktik materiallarining ham sifat darajasi yuqori bo‘lganidan foydalanishi kerak va bunga bugungi kunda alohida e’tibor qaratilmoqda. Ular:

- “Lulliya aylanalari” to‘plami – 10000 ta;
- 3-7 yoshli bolalar uchun diqqatni jamlash va mantiqiy fikrlar uchun rivojlanish soati – 20000 ta;
- 40 ta to‘plamdan iborat bo‘lgan Elementar matematik tasavvurlarni va bilimlarni rivojlantirish bo‘yicha didaktik o‘yinlar va masalalar to‘plami – 20000 ta (o‘zbek va rus tillarida);
- Ko‘rgazmali didaktik plakatlar to‘plami;
- 45 ta plakatdan iborat to‘plam 10000 ta (o‘zbek var us tillarida);
- Markazlarda faoliyatni tashkil etish uchun didaktik kartochkalar to‘plami. To‘plam 376 ta kartochkadan iborat – 10000 ta (o‘zbek var us tillarida);
- Nutqni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan figuralar va maskalar to‘plami;
- Stol teatri – 6149 ta;
- Ko‘ngilochar geometrik tushunchalar hosil qilish va logikani rivojlantirishga qaratilgan grafomatorika bo‘yicha didaktik to‘plam 3-7 yoshli bolalar uchun – 6149 ta;
- Tayyorlov guruhlari tarbiyalanuvchilarining ish daftarlari – 466032 ta;
- Tarbiyalanuvchilar uchun matematika daftari – 466032 ta;
- 6-7 yoshli bolalar uchun ingliz tili daftari – 466032 ta nusxada nashr ettirilmoqda.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma’naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek bolalarni umumiy o‘rtta ta’limga tayyorlashga qaratilgan ta’lim turidir.”²

Yuqorida ta’kidlangan didaktik bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlari ham davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Bunig asosiy sababi ushbu soha qamrovini yanada kengaytirish, ta’lim sifatini oshirishdir.

² 2”Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637 sonli 2020.09.23.

Har bir didaktik materialdan foydalanish pedagog-tarbiyachining mahoratiga bog‘liq bo‘ladi.Didaktik o‘yindan va didaktik materiallardan foydalanish faqatgina bolalarning emas, balkim tarbiyachining ham kreativligini oshiradi. Keyingi mashg‘ulotlarga ham yangicha yondashgan holda yangicha metodlar orqali puxta tayyorgarlik , mashg‘ulot davomida qiyinchiliklarga duch kelmaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni.”O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim to‘g‘risidagi qonuni”O‘RQ 16.12.2019.
2. Vazirlar Mahkamasi Qarori “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 22.12.2020
3. Maktabgacha pedagogika. F.Qodirova, Sh.Toshpo‘latova, N.Kayumova, M.A’zamova. “Tafakkur” nashriyoti. Toshkent – 2019.
4. Sodiqova . “Maktabgacha pedagogika”.

Veb-saytlar:

- 1.mpe.uz
- 2.<https://lex.uz/docs>